

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.O.Baltabayeva, O.A.Komiljonova

Franshizalarni ochish va ular bilan samarali ishlash - biznesni rivojlantirishning omili sifatida 6

A.Y.Toyirov S.R.Shodiyev

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatining o'ri 9

A.Y.Toyirov

Hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda infratuzulmaning o'ri 16

FALSAFA

A.A.Qambarov

Abdulla Avloniy o'zbek millatining ma'rifatparvar ziyolisi 21

G.T.Kabulniyazova

Uyg'onish davri falsafasining mashhur vakili Nikolay Kuzanskiyning panteistik ontologiyasi 27

X.N.Xolmirzaev

Sun'iy intellekt tizimlarida ijtimoiy me'yorlar va inson qadriyatlarining ahamiyati 32

S.S.Evatov

O'rta asr sharq faylasuflari ta'limotlaridagi gnoseologik va teologik qarashlarning qiyosiy tahlili 37

I.A.Asatulloev

Erix fromm ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida inson tabiati deformatsiyasi 40

B.X.Tolipov

Yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom axloqiy-iqtisodiy raqobat asosida rivojlantirishning falsafiy jihatlar 46

Sh.Q.Oxunova

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning sinergetik strategiyasi 50

M.K.Soipova

Fazl Ibn Axmading ontolgik qarashlari 54

L.K.Axatov

Irfoniy qarashlarning falsafiy mazmun-mohiyati (mutafakkirlar asarlarining tahlili asosida) 59

J.A.Mamanov

Yoshlarda ma'naviy madaniyatni yuksaltirishning milliy va umuminsoniy tamoyillari 63

I.I.Umrzakov

Xalq musiqa ijodiga doir falsafiy-madaniy yondashuvlar 70

Sh.A.Ismailov

Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosat yuritishning asosiy omillari 74

R.S.Raupova

Abu Ali Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy qarashlarining mamlakatimiz rivojida tutgan o'ri 78

M.A.Rahmonova

Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarini yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'ri 84

D.V.Vohidova, O.L.Berdiyev

Turkiy tasavvufning buyuk namoyandasi 92

B.B.Dehqonov

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalarining o'ri va ahamiyati 96

A.Z.Sharipov

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi-yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma'naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar asosi sifatida 102

L.B.Ikromova

Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolarning yoritilishi 107

A.X.Amonlayev, M.Y.Sultonov

Islom qadriyatlarida shaxs ma'naviyati haqidagi qarashlarning gumanistik mohiyati 111



UO'K: 101.1

**O'RTA ASR SHARQ FAYLASUFLARI TA'LIMOTLARIDAGI GNOSEOLOGIK VA
TEOLOGIK QARASHLARNING QIYOSIY TAHLILI****СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИХ И ТЕОЛОГИЧЕСКИХ
ВЗГЛЯДОВ В УЧЕНИЯХ СРЕДНЕВЕКОВЫХ ФИЛОСОФОВ ВОСТОКА****COMPARATIVE ANALYSIS OF GNOSEOLOGICAL AND THEOLOGICAL VIEWS IN THE
TEACHINGS OF MEDIEVAL EASTERN PHILOSOPHERS****Evatov Salimjon Sobirovich** 

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada O'rta asr musulmon Sharqi gnoseologik va teologik qarashlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari, Sharq allomalari falsafiy qarashlarining rivojlanish tendensiyalari, O'rta asr musulmon Sharqida gnoseologik va teologik ta'limotlarning o'zaro bog'liqligi, diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini ta'minlashda gnoseologik va teologik qarashlarning o'ri o'rganilgan. Shuningdek, O'rta asr sharq faylasuflari ta'limotlaridagi gnoseologik va teologik qarashlar tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы изучения гносеологических и теологических воззрений средневекового мусульманского Востока, тенденции развития философских воззрений восточных ученых, взаимосвязь гносеологических и теологических учений на средневековом мусульманском Востоке, роль гносеологических и теологических воззрений в обеспечении гармонии религиозного и светского знания. Анализируются также философские вопросы изучения теологических и гносеологических воззрений.

Abstract

The article examines the theoretical and methodological foundations of the study of gnoseological and theological views of the medieval Muslim East, the development trends of the philosophical views of Eastern scholars, the interrelation of gnoseological and theological teachings in the medieval Muslim East, and the role of gnoseological and theological views in ensuring the harmony of religious and secular knowledge. The philosophical issues of the study of theological and gnoseological views are also analyzed.

Kalit so'zlar: O'rta asr musulmon Sharqi, gnoseologik va teologik qarashlar, ma'rifatli jamiyat, ijtimoiy qonuniyatlar, ma'rifatlilik, axloqiy qadriyat, ijtimoiy-falsafiy tahlil, jamiyat taraqqiyoti, ma'rifiy islohotlar, innovatsion mexanizm, tendensiya, diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligi.

Ключевые слова: Средневековый мусульманский Восток, гносеологические и теологические воззрения, просвещенное общество, социальные законы, просвещение, моральные ценности, социально-философский анализ, общественное развитие, просвещенные реформы, механизм инноваций, тенденция, гармония религиозного и светского знания.

Key words: Medieval Muslim East, gnoseological and theological views, enlightened society, social laws, enlightenment, moral values, socio-philosophical analysis, social development, enlightened reforms, innovation mechanism, tendency, harmony of religious and secular knowledge.

KIRISH

O'rta asrlarda shakllangan gnoseologik va teologik qarashlarning qiyosiy tahlili asosida xulosalarni shakllantirish va ijtimoiy ahamiyatini aniqlash muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirda o'rta asr musulmon Sharqi mamlakatlarida faoliyat ko'rsatgan ilmiy va madaniy muassasalar, turli-tuman qo'lyozmalar jamlangan kutubxonalar, shifoxonalar, ilk rasadxonalar, tarjima markazlari va nihoyat, muayyan shaharlar yoki hukmdorlarning saroyida tashkil topgan to'la ma'nodagi ilmiy maktablar va ularda shakllangan gnoseologik qarashlar va yondashuvlar tizimli tarzda etarli darajada o'rganilmagan. Agar chuqurroq razm solinsa, bunday ilm maskanlarining umumiy soni o'ndan ortiq. Ularga "Bag'doddagi "Bayt al-hikma", Buxorodagi "Sivan al-hikma", Qohiradagi "Dar al-hikma", Xorazmdagi al-Ma'mun va Samarqanddagi Ulug'bek akademiyalari kabilarni keltirish mumkin. Bag'doddagi "Bayt al-hikma" yuqorida sanab o'tilgan ilmiy maktablar

orasida nafaqat eng dastlabkisi bo'lgan, balki o'zining katta shuhrat qozonishi bilan ham ajralib turgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Musulmon sharqining gnoseologik va teologik ta'limotlarining falsafiy g'oyalarini o'rganish hamda uning jahon falsafiy tafakkuri rivojiga ta'siri masalalari bo'yicha dunyoning qator ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, shuningdek, O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan fundamental tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O'rta asr Sharq allomalarining jahon ilm-fani, falsafasi, teologiyasi rivojiga qo'shgan hissasi, ularning gnoseologik va teologik qarashlarining ahamiyati H.Suter, G.Sarton, R.Donald, M.Ulmann, C.Brockelmann, A.Jourdain, V.V.Bartold, I.Y.Krachkovskiy, D.Knish, YE.E.Bertels, A.V.Smironov, M.Hasaniy, B.Namozov, K.Rahimov, Z.Narziyev, M.Mamatov, Q.Ro'zmatzoda, N.Hasanov, Z.Ishoqova, I.Haqqulov, H.Homidiy, A.Abdullayev kabi tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'rta asr Sharq falsafiy muhitida islom teologiyasi maxsus diniy dunyoqarash sifatida keng tarqala borishi bilan birga asta-sekin uning nazariy, falsafiy, huquqiy, adabiy kabi tomonlarini ishlab chiqishga e'tibor kuchaygan. IX-X asrlarga kelib, Qur'onga asoslangan maxsus islom ilmlari, ya'ni islomning turli tomonlama asosini mustahkamlash va uni talqin etishga qaratilgan teologik yo'nalishlar shakllana boshlagan. Diniy va dunyoviy ilmlar o'rtasidagi bag'rikeng munosabat, sog'lom raqobat, konstruktiv muloqot ularning yuqori darajada rivojlanishini ta'minlagan. "Zero, islom dinida dunyoviylikka dinga yot tushuncha sifatida qaralmaydi. Islom dinining muqaddas manbalari – Qur'on karim va Sunnada ham dunyoviylik tamoyillari asoslarini ko'rish mumkin. Shuningdek, diniy va dunyoviy ilmlarga asoslangan yo'nalishlar faoliyati va ulardagi vorisiylik an'analarining saqlanishi ham ilmiy faoliyatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga rag'batlantiruvchi ilmiy muhitning shakllanishi gnoseologik va teologik qarashlarning o'zaro ta'sirlashuvi, sintezlashuvi va uyg'unlikda islomiy dunyoqarash va tafakkur tarzini yuksalishiga asos bo'lgan.

O'rta asr Sharq gnoseologik qarashlar tizimini shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar ichida vorisiylik an'analarining o'zni yuqori bo'lib hisoblanadi. Bunga qadimgi davr G'arb falsafasi va madaniy merosini sharqqa, islom falsafasiga ta'sirini, sharq peripatetiklarining gnoseologik qarashlarini vorisiylik asosida takomillashtirilishida ko'rish mumkin. Shuningdek, islom teologik yondashuv tarzini rivoji davrida ilmga asoslangan munozaralar nafaqat ilmiy uyg'unlashning muhim omillaridan biri bo'lgan, balki fikrlar xilma-xilligini yashovchanligining eng muhim omili sanalgan. Umuman olganda bugun chop etilayotgan turli mavzudagi kitoblar va ular asosida yuzaga kelayotgan sof ilmiy munozaralar diniy va ijtimoiy zararlarni emas, aksincha, diniy va dunyoviy konsensus (kelishuvchanlik)ni o'zida aks ettirmog'i lozim.

O'rta asr Sharq gnoseologlari va teologlari tomonidan "bilim"ga berilgan ta'riflar o'rtasida farq bo'lib, faylasuf va ilohiyotchilarning maqsadlari har xil bo'lganligidan dalolat beradi. Ilohiyotchilar tomonidan nazariy jihatdan yaxshi tayyorlangan va ularning asarlarida yaxshi ishlab chiqilgan epistemologiya mavjud edi. Bu epistemologiya mantiq, bilimlarning ishonchlilik hamda manbalar asosida turlarga bo'lishga tayangan edi. Ilohiyotchilar asarlarining avvalida muntazam ravishda bilim haqidagi nazariya keltirilib, undan so'ng ilohiyot bilan bog'liq masalalar ko'riladi. Keyingi ilohiyotchilar ham imonga bilim orqali kelish (yetishish) g'oyasini targ'ib qiladilar. Gnoseologlar bilimlarni ilohiy ilmlar (ruh, aql, oliy sabab (Oллоh) va uning xususiyatlariga bag'ishlangan ilmlar) va falsafiy bilimga ajratadilar.

O'rta asr Sharq allomalarining gnoseologik qarashlarida "aql" tushunchasi katta ahamiyat kasb etgan. Islom ilohiyotiga ko'ra, "hikmatga aql orqali erishiladi, aqlning o'zi esa vahiyning namoyoni bo'lgan makrokosmik haqiqatning mikrokosmik aksidir, deb ushbu ta'limotga asoslangan holda islom falsafasida aql haqidagi ta'limot rivojlantirilgan. Agar Forobiyning falsafani hikmatni anglash ilmi sifatida tavsiflagani va bu xulosa keyinchalik ham o'z ahamiyatini saqlab qolgani hisobga olinsa, masala yanada oydinlashadi".

O'rta asr Sharq gnoseologiyasida aql muhim ahamiyatga ega bo'lgan va uni turli jihatlarida o'rganishgan, masalan, aql – fiqh tushunchasi sifatida. Aqlga, bilimga ega bo'lgan va shariat talablariga bo'ysunuvchi, balog'atga etgan inson to'g'ri xulq-atvor egasidir. Demak aqllilik din aqidalari, rasm-rusumlaridan xabardor bo'lish, ularni bilishdan iborat, aqllilik dindorlikka tengdir. Aqllilik insonning o'zining-o'zi va jamiyatga nisbatan mas'uliyatini ifoda etadi, o'zida dindand xabardorlik va hayotiy pragmatizmni birlashtirishni ifodalaydi. Ibn Sino ilohiyotida aql muammosiga

FALSAFA

quyidagicha munosabatni ko'rish mumkin: "Ma'lumki, ruhlar foydalanishi mumkin bo'lgan tana vujudga kelgandagina ruhlar paydo bo'ladilar... so'ng shunday holat paydo bo'ladiki, u aqlga asoslangan harakatlarni ta'minlaydi...". Ibn Sino ruhga ta'rif berar ekan, uni ko'zgu bilan taqqoslaydi, bu ko'zguda narsalarning shakllari aks etadi. Inson miyasi ko'zgu kabi olamning bir qismini o'zida aks etadi, bunda nafaqat uning tashqi ko'rinishi, balki undagi ichki aloqadorlik ham ko'rinadi. Ong mazmuni – xuddi ko'zgudagi narsaning aksi kabi moddiy emasdir.

Islom ilohiyotchilari fikriga ko'ra, inson aqli ilohiy aqlga o'xshaydi, lekin aynan o'xshashligi sababli mukammal emasdir. Ikkinchidan, aql potensial shaklda (masalan, bolalarda), fikr yuritish bilan bog'liq qobiliyat sifatida hamda aktual shaklda, ya'ni amalga oshgan, faoliyat ko'rsatuvchi aql sifatida namoyon bo'ladi. Uchinchidan, ta'lim olish, tajriba orttirish, xulosalar chiqarish natijasida qo'lga kiritilgan (egallangan) aql va egallanmagan, bevosita intuitsiyaga aynan bo'lgan aql. To'rtinchidan, aql passiv, ya'ni ta'sirlarni qabul qiluvchi (ta'sirlanuvchi) hamda faol, narsalarga ta'sir qiluvchi, shakl hosil qiluvchi bo'lishi mumkin.

O'rta asr Sharq teologiyasining gnoseologik qarashlar bilan sintezlashuvi natijasida ruhning abadiyligi va tana bilan munosabati masalalari ham yoritilgan. Ongli ruh muammosi diniy dunyoqarash, ya'ni ruhning abadiyligi muammosi bilan bog'liq va bunday ko'rinishda - ruhning tana bilan bog'liqligi yoki undan mustaqil ekanligi masalasida qo'shimcha falsafiy tavsifga ega bo'ladi. Musulmon ilohiyoti ruh bilan tanani bir-biriga bog'laydi, uning abadiyligi va u dunyoda tirilishini e'tirof etadi. Musulmon diniy falsafasi vakillari bu muammoni har holda ruhga nisbatan aniq hal etishdi: ruh abadiy, inson o'limidan so'ng ruh, ongli ruh (ya'ni aqlga ega ruh) dunyoviy ruh bilan birlashadi.

O'rta asr Sharq allomalarining gnoseologik qarashlarini islom ilohiyotshunosligi bilan sintezlashuvini sharq peripatetiklarining g'oya va ta'limotlarida ko'rish mumkin. O'rta Osiyoda yangi aflotuncha qarashlarining taraqqiyotida Kindiy, Roziy, Forobiy va Ibn Sinolarning g'oyalari muhim o'rin tutgan. Kindiy tafakkurida ko'proq Arastu unsurlari ustunlik qilsa, Abu Bakr Zakariyo Roziyda Aflotun qarashlari kuchliroq edi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan quyidagi xulosaga kelish mumkin: ilk so'fiylarning ma'naviy-amaliy faoliyatining o'ziga xosligi shundan iboratki, unga amaliy vazifalarni (tarki dunyo, zuhdni amalga oshirishga yo'naltirilgan axloqiy kamolotga etishish va taqvodorlikni) amalga oshirish bilan bir qatorda nazariy muammolarni hal etish (inson o'zining jismoniy mavjudot sifatidagi ontologik mavqeini tark etmay turib iloh bilan birlashish) vazifalari ham kiradi. Ushbu vazifalarga, shuningdek Ollohgacha etishish, uni bilish, ya'ni ma'rifat haqidagi ta'limotni yaratish epistemologik strategiyasi ham kirib ketadi. Bu strategiya asosini, yuqorida qayd qilganimizdek, ilohiy olam va narsalar dunyosining bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi emas, aksincha, ular bir-birini taqozo etishi haqidagi ontologik tasavvur yotadi. Olloh bir vaqtning o'zida ham g'oyib ham zohirdir, moddiy dunyo narsalarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun zohidlar faoliyati muayyan ma'naviy-psixologik kayfiyatda, ifoda etib bo'lmaydigan sezgilar orqali ilohiy haqiqatga etishish mumkin degan gnoseologik tasavvurlar hosil bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Заҳабий, Имом Абу Абдуллоҳ Шамсиддин Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Усмон. Машҳур даҳолар сийрати. – Тошкент: Шарқ, 2015. –480 б.
2. Ислом маърифати ва ҳозирги замон. Нашрга тайёрловчи Абдуллаев А. –Тошкент: Тошкент ислом университети, 2017. –Б. 13.
3. Комилов Н. Тасаввуф. -Тошкент: Мовароуннахр, 2009. -448 б.
4. Мовардий, Абул Ҳасан. Дунё тва дин одоби. –Тошкент: "Hilol-Nashr", 2017. – 456 б.
5. Насыров И. Р. Онтологические и гносеологические основания исламского мистицизма (генезис и эволюция).- Автореф. дисс. ...д.ф.н.- Москва: 2007.- С. 9.
6. Сайидахмедова А.С. Ислом фалсафасида гносеологик масалалар талқини. Ф.ф.н. илмий дар...автореферат.- Тошкент, 2009. Б. 16-17.